(3). Mirsanov G‘.Q. Ingliz va o‘zbek tillarida yurish-harakat fe’llarining aksional va aspektual xususiyatlari. Filol.fan.n.diss. avtoref., Toshkent, 2009, 21-bet.

(4). Shermatov A. Tilshunoslikdagi yangi yo‘nalishlar xususida. Tilshunoslikdagi yangi yo‘nalishlar va ularning muammolari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari, Toshkent, 2013, 234–237-betlar.

(5). Smith C.S. Modes of Discourse. The Local Structure of Texts. Cambridge University Press, 2003, 336 p.

(6). Vendler L. Verbs and times. Der englische Aspekt. Ed. By A.Schopf. Darmstadt, 1974, 217–234-betlar.

Dlanova Palzira Gulimbetovna (Qoraqalpog‘iston Qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti)

TALABALARDA ORFOGRAFIK KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy o‘quv yurtlarida ta’lim oluvchi talabalar uchun tilning fonetik va grammatik o‘zgachaliklarini tushungan holda, orfografik yozishni bilish alohida ahamiyatga ega ekanligi, talabaga qoraqalpoq tilini to‘liqroq va mustahkam o‘zlashtirishga yordam berishi uchun orfografik ko‘nikmalarni shakllantirish va takomillashtirish masalalari haqida so‘z yurtiladi. Ta’lim boshqa tilda olib boriladigan o‘rta maktabni tugatib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi oliy ta’lim muassasalariga kirishda talabgorlar qoraqalpoq tilining asosiy qoidalarini bilishi, o‘qigan matnlarini og‘zaki va yozma turda yetkaza olishi kerak. Bunda orfografiyani ham bilishi kerakligi alohida ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar*: orfografiya, morfologiya, fonetika, matn, prinsip, og‘zaki, yozma.*

ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ОРФОГРАФИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье рассматривается важность знания орфографии для студентов, обучающихся в высших учебных заведениях, понимания фонетических и грамматических особенностей языка, а также вопросы формирования и совершенствования навыков орфографии, помогающих студентам более полно и прочно овладеть каракалпакским языком. Для окончания средней школы с обучением на другом языке и поступления в высшие учебные заведения Республики Каракалпакстан учащиеся должны знать основные правила каракалпакского языка и уметь устно и письменно передавать прочитанные тексты. Особенно важно, чтобы они также знали, как писать.*

Ключевые слова: *орфография, морфология, фонетика, текст, принцип, устный, письменный.*

ISSUES OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF ORTHOGRAPHIC SKILLS IN STUDENTS

Annotation. *This article discusses the importance of knowledge of spelling for students studying in higher education institutions, understanding the phonetic and grammatical features of the language, and the issues of forming and improving spelling skills in order to help students master the Karakalpak language more fully and firmly. Upon graduating from secondary school, where education is conducted in another language, students entering higher educational institutions of the Republic of Karakalpakstan must know the basic rules of the Karakalpak language, be able to convey the texts they have read orally and in writing. In this regard, it is especially important to know spelling.*

Keywords: *spelling, morphology, phonetics, text, principle, oral, written.*

Kirish (Introduction). Har bir yuksak madaniyatli inson to‘g‘ri yoza bilishi va to‘g‘ri so‘zlay olishi kerak. Bu talab bo‘lg‘usi pedagoglar va filologlarga nisbatan, ayniqsa, qat’iy qo‘yiladi. Chunki ular yosh avlodga umumiy savodxonlik va nutq madaniyati to‘g‘risida saboq beradilar, ularni savodxonlikka va chechanlikka o‘rgatadilar. Qraqalpoq orfografiyasi tizimini o‘zlastirish talabalarning imlo ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o‘qish faoliyati natijasida yuzaga keladi. Agar talabalar orfografik tushunchalar tizimini va qoraqalpoq tilining orfografiyasini biladigan bo‘lsa, orfografik ko‘nikmalar yaxshi shakllanadi.

Ma’lumki, nutqning og‘zaki va yozma shakllari mavjud bo‘lib, bular texnik jihati, talaffuz va ta’sir etish xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Nutqning ana shunday ko‘rinishlaridan biri yozma putq (yozuv yo‘li bilan fikr ifodalash vositasi) orfografiya bilan bevosita va uzviy bog‘liqdir. Nutqning bu ko‘rinishi yagona tarzda yozishning ma’lum ilmiy va obyektiv qonun-qoidalari tizimi bo‘lgan orfografiya va uning prinsiplariga asoslanadi. Orfografiya adabiy tilning yozuv shakli bilan aloqador bo‘lib, u to‘g‘ri yozish qoidalari to‘g‘risidagi fandir. Orfografik kompetensiyani shakllantirish fikirlashning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Ko‘rgazmali-amaliy fikrlash narsalarni (holatni) aniq sezishga, narsalar bilan harakat etish jarayonida holatni real o‘zgartirishga tayanadi. Ko‘rgazmali-obrazli fikrlash ko‘rinish va obrazlarga asoslanishi bilan xarakterlanadi. Uning vazifasi holatni ko‘rsatish va ulardagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lib,

odam holatni o‘zgartirish faoliyati natijasida ko‘rsatishdan iborat. Tushunchalar bilan mantiqiy operatsiyalar orqali mantiqiy fikrlash amalga oshiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Biroq talaba yangi, o‘zgargan sharoitlarda, ya’ni ijodiy yozishda qoidalardan foydalanishni o‘rganmasa, orfografiyani o‘rganish tugamaydi, shuning uchun ijodiy ishlarda: insho, bayon, referat, esse va bosqalardan foydalanish zarur bo‘lib hisoblanadi. Ko‘nikmalarni avtomatlashtirish uchun faqat o‘tilganlarni doimiy takrorlash emas, o‘rganilgan orfografik va punktuatsiya qoidalaridan erkin foydalanishni nazarda tutadigan mashqlar, ya’ni ijodiy, konstruktiv ishlar zarur.

Orfografik kompetensiyani shakllantirish qiyin va uzoq muddatli pedagogik jarayon. Qoraqalpoq orfografiyasini o‘qitishning lingvistik asoslarlarini analizlash birqator xulosalar chiqarishga imkon beradi:

– qoraqalpoq orfografiyasining asosiy tamoyili morfologik tamoyil;

– qoraqalpoq orfografiyasining morfologik xarakterini, uning, ya’ni tilning har xil darajalari va aspektlari bilan bog‘liq xarakteri, orfogrammalar va orfografik qoidalarlarning o‘zgachaliklari bilan bir qatorda hisobga olish qoraqalpoq maktabida ham ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktabda ham o‘qitish uslublarining asoslarini belgilaydi, qoraqalpoq tilining eng ahamiyatli bo‘limlaridan o‘zlastirishni, orfografik mashg‘ulotlarning doimiyligini ta’miynlaydi;

– orfografik tamoyillarning har birining o‘ziga xosligi orfogrammalarning yozilishiga turlicha munosabatni shakllantirishni belgilab beradi. Har bir tamoyilga belgili bir orfogrammalar mos keladi;

– orfogrammaning mazmunini aniqlash, uni orfogramma emaslardan ajratish orfografik xatolikni aniqlash imkoniyatini beradi;

– nazariy bilimlarni o‘zlastirish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va takomillashtirish – orfografik savodli yozishni shakllantirishning birdanbir tamoyili.

Har qanday nazariyani joriy qilishda ikki aspektni nazarda tutish kerak: mazmunan va qo‘llanilish jihati nazarda tutiladi. Birinchisi nazariy materialni nutqiy vaziyatlarda ishlatishni nazarda tutadi. Ikkinchisi – o‘qitishning metod va usullarini takomillashtirish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Orfografiyaning har bir tamoyiliga orfografiyaning asosiy obyekti bo‘lgan belgili bir orfogrammalar mos keladi. Tadqiqotchilar (M.V.Ushakov, D.N.Bogoyavlenskiy, N.S.Rojdestvenskiy, N.N.Algazina, M.T.Baranov) orfogrammani har xil ta’riflab, uning eng ahamiyatli belgilariga e’tibor qaratgan. M.T.Baranov o‘qivchilarning “so‘zlarda qoidalarni qo‘llanish “nuqtalarini” topish“, ya’ni, orfogrammalarni tanish belgilari bo‘yicha topish ko‘nikmasiga ega bo‘lish uchun orfogrammalar va orfogrammalar emaslarga bo‘lishni maqsadga muvofiq deb hisoblashadi.[1] M.V.Ushakov orfogrammaning orfografik qoidalarga bo‘lishini ta’kidlab ko‘rsatadi. V.F.Ivanovaning fikricha, orfogramma deb to‘g‘ri yozishni hisobga olish kerak, uni bir qator mavjud bo‘lgan yozivlar orasidan tanlash kerak. Orfogramma faqat bir harf emas, qo‘shilib yoziluvchi, ajratib yoziluvchi, qatorlashib kelgan harflar, bo‘g‘inlar yoki so‘zlarning qisqartilish hajmi ham e’tiborga olinishi mumkin. N.F.Juykov: “...orfogramma yozishda belgilanadigan ovozli nutqning tuzilish elementi, yozish belgisi va tovushli gapirish elementini belgilash usulining birligidan iborat. Bunday ta’rif yozivda berilishicha aytish, nutqni rasmiylashtirishning barcha holatlarini – grafikasini va imlosini o‘z ichiga oladi”,[2] deb yozadi.

P.S.Jedek orfogramma deb “eshitishda qo‘llanilmaydigan yozivni (harf, chiziqcha, bo‘shliq va bosqa yozish belgilari) nazarda tutadi”.[3]

Orfogrammalarning variant nazariyasi N.N.Algazina tomonidan ishlab chiqilgan. Orfogrammaning belgisi bo‘lib, yozish variantlarining bor ekanligi uni orfogramma emas boshqa grafik belgilardan ajratib turadi. Orfogramma emaslar qatoriga orfografiyaning hech qanday qoidalari bilan tartibga solinmaydigan, uning harakat etish sohasidan tashqariga chiqadigan, aytilishi bilan tog‘ridan to‘g‘ri belgilanadigan yozuvlar kiradi. Bu orfogrammalar ham orfogramma emaslarga bo‘linishi milliy guruh o‘qivchilariga qoraqalpoq tilini o‘rgatish metodikasi uchun ahamiyatli bo‘lib, orfografik xatoni aniqlash imkoniyatini beradi. An’anaviy holatda indifferent xarakterdagi xatolar orfografik xatolar qatoriga kiritilgan (A.V.Faqatuchev, M.V. Ushakov va boshqalar). Biroq ularning paydo bo‘lishini orfografik me’yorlarning buzilishi bilan tushuntirib bo‘lmaydi. Bu xatolarning sababi yozishda ifodalangan, ammo nutqda noto‘g‘ri talaffuz qilish hisoblanadi.

---

[1] Баранов М.Т. Методика преподавания русского языка. М., 1990, с. 34.

[2] Жуйков С.Ф. Умственная деятельность школьников при развивающем обучении русскому языку. “Начальная школа”, М., 1991, № 10, с. 51.

[3] Жедек П.С., Репкин В.В. Из опыта изучения закономерностей русской орфографии. Обучение орфографии. Сборник статей. Ред. сост. М.М.Разумовская, М., “Просвещение”, 1974, с. 131.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Qoraqalpoq alifbosidagi harflarning kalligrafik tomondan to‘g‘ri yozilishiga e’tibor qaratish kerak. Faqat savodli yozish emas, balki chiroyli yozishni ham bilish kerak. Kalligrafiya estetik tarbiya quroli sifatida ahamiyatli. Shuning bilan birga, orfografiya bilan bog‘liqligi jihatidan alohida ahamiyatga ega. Talaba faqat harflarni yozib va ularni so‘zlarga biriktirib qo‘ymasdan, harflarni tushirib qoldirmay, o‘rnini almashtirmay yozishi ham kerak. Qoraqalpoq harflarining yozilishi ona tili grammatikasiga qiyosan o‘zlashtiriladi. Yozishga qo‘yiladigan asosiy talablarni bajarish bo‘yicha tizimli ishlar harflarni orfografik tomondan to‘g‘ri yozishni o‘zlashtirishga yordam beradi, bu ko‘nikmalar bir umr saqlanib qoladi. Bu tilni savodli bilishning shartlaridan biri bo‘lib, boshqa fanlarni muvaffaqiyatli o‘rganish imkoniyatini beradi, ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli o‘tishi uchin zarur bo‘lgan talabchanlik, tirishqoqlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantiradi, tilga hurmat fazilatlarini tarbiyalaydi. Kalligrafiyani o‘rganish yozish texnikasi, estetik muammolari bilan bog‘liq bo‘lib, yozishni shakllantirishga qaratiladi. Kalligrafik yozish ko‘nikmasini egallagan talabalar orfografik savodxonlik ko‘nikmasini muvaffaqiyatli egallaydi, kelajakda til tizimlarini yuqori darajada egallaydi.

Katta hajmli harflar bilan yozishga qaraganda katta hajmli yozivlar bilan talabalar orfografiyani qiyin o‘zlashtiradi. Bunga sabab, ko‘z katta hajmli yoziv bilan yozilgan so‘zni kuch bilan qamraydi va o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan orfogrammalarni yaxshi qabul etmasligi holatlari bo‘lishi mumkin. Xatolarning paydo bo‘lishiga, ko‘pincha, harflar shaklining aniq emasligi yoki noto‘g‘ri yozilishi, ularni bir-biri bilan tutashtirish, so‘zlarni e’tiborsizlik bilan yozish ham sabab bo‘ladi. Chiroyli, aniq, tez yozishga intilish savodlilikni orttirishga, orfografik iqtidorni shakllantirishga yordam beradi. Kalligrafik yozish: harflarning konfiguratsiyasini sezish uchun, belgilarning o‘xshashligini va farqlarini o‘rganish uchun, yozishda to‘g‘ri harakatlar rejasini ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan ko‘rgazmali-obrazli va abstrakt fikrlashni yangi darajaga ko‘tarishga; har xil shakllardan ko‘rish orqali qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga; varaq, qator kengaytmalarida manzilli yo‘nalish oladi, yozish elementlari orasidagi kengaytma munosabatlarini oson aniqlash qabiliyatini shakllantirishga; qo‘lni mustahkamlashga, harakatlar koordinatsiyasini yaxshilashga va umuman yozish, qo‘l harakatlarining butun murakkab tarkibli tuzilmasini o‘zi mustaqil boshqarish qobilyatini rivojlantirishga; yozishning gigienik qoidalariga (gavda, qo‘l, daftar va h.k.) yo‘naltiriladi.

Orfogramma – bu to‘g‘ri yozish bolib, eshitishga qo‘llanilmaydi: tekshiruvni talab etadigan yozuv (harf, harflar birikmasi, morfema, so‘zlar orasidagi o‘rin, morfemalarning tutashgan joyi, so‘zni bo‘g‘inlarga ajratish joyi);

– kamida ikki mumkin bo‘lgan yozish variantining mavjudligi, ulardan faqat birinchi to‘g‘ri. Qoraqalpoq orfogrammalarining tarkibi quyidagicha:

1) tovushlarni harflar bilan belgilashga bog‘liq orfogrammalar:

a) tovushlarning kuchsiz pozitsiyalari o‘rnida;

b) kuchli pozitsiyadagi tovushlarni belgilashning ayrim holatlari;

2) morfemalarning tovush tarkibini belgilash bilan bog‘liq bo‘lmagan orfogrammalar:

a) bosh harf;

b) ayirish,

d) bo‘g‘inga bo‘lish,

e) so‘zlarni qisqartish.

Ta’kidlab o‘tish kerak, ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan talabalarni o‘qitishda ona tilining tovushlarini hisobga olish zarur. Masalan, o‘zbek tilida “i” unlisi xarakterli emas, shu sababli o‘zbek talabalarining nutqida shu tovushni aytishda va yozishda xatoliklar uchrashadi. Orfografiya, bir tomondan, alfavit bilan ham bog‘liq. O‘zbek alfavitida birgina i qabul qilinganligi sababli, o‘zbek tilidagi kishi, qiliq, bilan, biroq shira, qizil, tishlik kabi so‘zlardagi “i” tovushlari har xil talaffuz qilinishiga (kuchli va kuchsiz, til oldi va til orqa) qaramasdan, ular ham orfografiyada qabul qilingan qoidaga muvofiq faqat bir xil “i” bilan ifodalanadi. O‘zbek orfografiyasidagi o‘rtoq, o‘roq, o‘rdak, o‘lka yoki uchmoq, quchmoq hamda uchun, kuchli kabi so‘zlarning orfografiyasi haqida ham shu fikrni aytish mumkin. Shuning uchun ham o‘qitishda yangi til hodisalarini, tushunchalarni tushuntirishda ona tilidan foydalanish zarur. Orfografik qoidani ongli va mustahkam o‘zlashtirishda ona tilining o‘zgachaliklarini hisobga olish katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, orfografik kompetensiyaning shakllanishida pedagogning shaxsi, uning eruditsiyasi va madaniyati ta’sir qiladi. Qoidalarni biladigan ayrim talabalarning orfografik tayyorligida ayrim katta kamchiliklarni olimlar va o‘qitivchilar sezmasligi mumkin emas. Talabalar ayrim qoidalar orasidagi bog‘liqlikni ko‘rmaydi, asosan, standart emas orfografik holatlarda o‘zini-o‘zi nazorat qilish ko‘nikmalariga ega emas va ko‘p holatda ularni amaliyotda qo‘llay olmaydi, sababi tushunchani yoki qoidani o‘zlashtirish uni qo‘lla-

nish jarayonida yuz beradi. Bilim berish bosqichida o‘qituvchi tildagi tushunchani, hodisalarni tushuntirishda ona tiliga suyanishi kerak. Bu materialni mustahkam va ongli o‘zlashtirish tushunchasini beradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Orfografik materiallarni berishning integratsiyalashgan yo‘li, pedagogik tomondan, avvalo, matn beriladi, keyin savollar qo‘yiladi, kerakli orfogramma aniqlanadi, qoida bildiriladi va tushuntirish namunalari beriladi. Bu qoidani mustahkamlashga yordam beradigan jaadvallar, savollar, grafik orfogrammani ajratish ko‘rinishidagi didaktik material bo‘lishi mumkin. Grammatik qoidalarni o‘zlashtirish so‘zlarni yodlashdan iborat emas, talabaning bilimlarni o‘zlastirish va amalda qo‘llanish bo‘yicha faol fikrlash vazifasidan iborat. Barcha ishlar tarbiyaviy vazifalarga javob beradigan, mazmuni va shakli bo‘yicha talabalar uchun tushunarli bo‘lgan materialda amalga oshirilishi kerak. O‘qitivchi talabalarning nutqi to‘g‘ri, yozishi savotli bo‘lishiga harakat etishi kerak.

Pedagogikada eng ahamiyatli didaktik tamoyillardan biri – talabalarning faolligi sifatida qaraladigan erkinligini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Mustaqil taa’lim o‘qitivchining to‘g‘ridan to‘g‘ri ishtirokisiz, biroq uning vazifasi bo‘yicha amalga oshiriladi; bunda talaba o‘z harakatlarini ko‘rsatib, o‘zining aqliy va jismoniy harakatlarining natijalarini shu yoki boshqa shaklda ko‘rsatib, topshiriqqa qo‘yilgan maqsadga erishishga ongli ravishda intiladi.

Xususiyatiga ko‘ra, orfografik qoidalarni quyidagicha klassifikatsiyalash mumkin: 1) qoida-ko‘rsatma: fakt tasdiqlanadi – qoidalarni berishning eng oddiy shakli, bunda til materialini tavsiya etishning asosiy shakli namuna hisoblanadi; 2) qoida-qo‘llanma: so‘zni to‘g‘ri yozish uchun zarur bo‘lgan shart bayon etiladi. Agar talaba orfografik qoidalarni o‘rganish natijasida ayrim holatlarni umumlashtira olsa va qoidani qo‘llay olsa, bu orfogramma va orfografik qoidani tushunish va o‘zlashtirishning ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Баранов М.Т. Методика преподавания русского языка. М., 1990, с. 34.

(2). Жуйков С.Ф. Умственная деятельность школьников при развивающем обучении русскому языку. “Начальная школа”, М., 1991, № 10, с. 51.

(3). Жедек П.С., Репкин В.В. Из опыта изучения закономерностей русской орфографии. Обучение орфографии: Сборник статей.

(4). М.М.Разумовская. М., “Просвещение”, 1974, с. 131.

Ro‘zmetov Hamid Qalandarovich (Urganch davlat universiteti roman-german filologiyasi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi; ruzmetovxamid8@gmail.com),
Shomurotova Nigora Otabayevna (Urganch davlat universiteti xorijiy filologiya fakulteti 2-bosqich magistranti; shomurotovanigora5009@gmail.com)

SHE’RIY TARJIMADA MILLIY KOLORITNING AKS ETISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Omon Matjon she’rlarida qo‘llangan milliy koloritning o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. Shoirning bunday birliklardan mahorat bilan foydalana bilishi, shuningdek, badiiy matnda tasvirlanayotgan davr voqeligini real tasvirlash, she’rning koloritlik ruhini ta’minlash, she’r badiiyatini kuchaytirish kabi maqsadlarda eskirgan so‘zlarni qo‘llash usuli tadqiq qilinadi. Shuningdek, milliy koloritning badiiy tarjima hamda adabiyotda tutgan o‘rni, vazifalari, qo‘llanilishi va shakllari haqida so‘z boradi. Shu bilan birga, Omon Matjon she’rlaridagi milliy kolorit tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, milliy kolorit, she’riyat tili, tarjima, mumtoz adabiyot, badiiy tafakkur, ijtimoiy-axloqiy g‘oya, badiiy takror, she’r g‘oyasi va shakli, badiiy tasvir vositasi,mazmun va shakl.*

ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО КОЛОРИТА В ПОЭТИЧЕСКОМ ПЕРЕВОДЕ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются особенности передачи национального колорита в поэзии Омона Матжона. Исследуется мастерство поэта в использовании элементов с национально-культурной окраской, а также методы применения устаревших слов с целью реального изображения действительности эпохи, обеспечения колоритности стихотворения и усиления художественности. Также изучается роль, задачи, применение и формы передачи национального колорита в художественном переводе и литературе. Кроме этого, анализируются элементы национального колорита в стихах поэта.*

Ключевые слова: *лингвопоэтика, национальный колорит, язык поэзии, перевод, классическая литература, художественное мышление, социально-нравственная идея, художественное повторение, идея и форма стихотворения, средства художественного изображения, содержание и форма.*

THE REFLECTION OF NATIONAL COLOR IN POETIC TRANSLATION

Annotation. *This article discusses the distinctive features of traditional color used in the poems of Omon Matjon. It explores the poet’s brightful use of these elements and examines the method of employing*